

**QANDLI DIABETDA YARA BITISH JARAYONINING
XUSUSIYATLARI**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

davolash ishi yo'nalishi 4 - kurs talabasi

Karimjonova Mashhura

Annotatsiya; *Ushbu maqolada qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda yara bitish jarayonining patofiziologik xususiyatlari, ularni sekinlashtiruvchi omillar hamda zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilinadi. Giperglikemiya natijasida qon tomir va nerv tizimi zararlanishi, immunitetning pasayishi hamda oksidlovchi stress yara bitish mexanizmini sekinlashtiradi. Maqolada diabetik yaralarni davolashda ishlatiladigan innovatsion vositalar va biologik faol moddalarning roli ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *qandli diabet, yara bitishi, angiopatiya, giperglikemiya, regeneratsiya, insulin, oksidlovchi stress*

Qandli diabet (Diabetes mellitus) — bu uglevod, yog' va oqsil almashinuvining buzilishi bilan kechadigan surunkali endokrin kasallikdir. Diabetning asoratlaridan biri sifatida yara bitish jarayonining sustlashuvi ko'p uchraydi. Ayniqsa, oyoqlarda paydo bo'ladigan "diabetik oyoq" sindromi tibbiyot amaliyotida jiddiy muammo hisoblanadi. Yara bitishning kechikishi asoratlar, infeksiya va hatto amputatsiya xavfini oshiradi. Diabetda yara bitish jarayonining fiziologik asoslari Sog'lom organizmda yara bitish uch bosqichda kechadi: 1. Yallig'lanish bosqichi – zararlangan to'qimalarda qon tomirlar kengayadi, fagotsitlar faol bo'ladi. 2. Proliferatsiya bosqichi – fibroblastlar kollagen ishlab chiqaradi, yangi to'qima hosil bo'ladi. 3. Remodelatsiya bosqichi – yara joyida epiteliy hosil bo'ladi va to'liq tiklanish yuz beradi. Diabetda bu bosqichlar buzilgan glukoz metabolizmi, tomir va nerv zararlanishi sababli sekin kechadi. Qandli diabetda doimiy giperglikemiya (qonda glyukoza miqdorining oshishi) natijasida: Qon tomirlar devori qalinlashadi va mikrosirkulyatsiya buziladi; Oqsillar

glikatsiyalanib, to'qimalar elastikligi kamayadi; Neyropatiya sababli yara joyidagi sezuvchanlik pasayadi; Oqsil sintezi va kollagen hosil bo'lish jarayoni sustlashadi. Natijada yara joyi kislorod va oziqa moddalarga to'liq ta'minlanmaydi, bu esa yara bitish tezligini keskin pasaytiradi. Diabetda neytrofillar faoliyati pasayadi, fagotsitoz jarayoni sustlashadi va infeksiyalar tez rivojlanadi. Shu sababli diabetik yaralarda ko'pincha stafilokokk, streptokokk va anaerob bakteriyalar uchraydi. Infeksiya yallig'lanish jarayonini uzaytiradi, bu esa regeneratsiyani yanada kechiktiradi. Diabetik yaralarni davolash usullari; Hozirgi davolash yondashuvlari quyidagilardan iborat: Qon glyukozasini nazorat qilish (insulin yoki og'iz orqali qabul qilinadigan dori vositalar); Yarani antiseptik vositalar bilan tozalash (xlorheksidin, miramistin, betadin); Mahalliy regeneratsiyani rag'batlantiruvchi vositalar (solkoseril, aktovegin, metiluratsil); Lazer va ozon terapiyasi – mikrosirkulyatsiyani yaxshilaydi, to'qimalarni kislorod bilan boyitadi; Biologik faol qo'shimchalar (rux, vitamin C, E, omega-3 yog' kislotalari) yara bitishini tezlashtiradi. Ba'zi hollarda staminali terapiya va to'qima muhandisligi usullari ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Qandli diabet bilan og'rigan bemorlar uchun: Qon shakarini doimiy nazorat qilish; To'g'ri ovqatlanish va gigiyenaga rioya etish; Oyoq terisini har kuni tekshirish, kichik jarohatlarni o'z vaqtida davolash; Shifokor ko'rigidan muntazam o'tib turish tavsiya etiladi.

Xulosa;

Qandli diabetda yara bitish jarayonining sustlashuvi mikrosirkulyatsiya buzilishi, giperglikemiya, immunitet pasayishi va oksidlovchi stress bilan bog'liq. Zamonaviy yondashuvlar (insulin terapiyasi, regeneratsiya stimulyatorlari, lazer va ozon terapiyasi) yara bitish tezligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yarani davolashda kompleks yondashuv va individual parvarish asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A., Rasulova M. Endokrinologiya asoslari, Toshkent, 2022.
2. Falanga V. "Wound healing and its impairment in the diabetic foot", Lancet, 2021.

3. World Health Organization. Global report on diabetes, WHO, 2023.
4. Guyton A.C., Hall J.E. Textbook of Medical Physiology, 14th edition, Elsevier, 2021.